O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
FARG'ONA VILOYATI
BOSHQARMASI

150115 Farg'ona shahri, Al-Farg'oniy 36-uy, Tel/Faks: 71-203-11-48, E-mail: fergexp@rambler.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Islamov Bekzod Ravshan O‘g‘li

Sana: 09-01-2026 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

271539 - SONLI

Obyekt nomi: Mavjud ma’nan eskirgan bino inshootlarni buzib, o‘rniga ko‘p qavatli birinchi va ikkinchi qavatlari qisman savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchalari, qolgan qavatlari turar-joy binosi sifatida qurish.	
Buyurtmachi:	TOJMAHAL CITY QURILISH MCHJ
Bosh loyihachi:	"PROARCH" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	“Tojmahal city qurilish” MChJ
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	104583

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligi tomonidan 04 dek abr 2025 yilda berilgan 215183785-sonli Ruxsatnomasi

1.2. “Tojmahal city qurilish” MChJ rahbari tomonidan tasdiqlangan Loyiha topshirig’i.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligi tomonidan 10 oktyabr 2026 yilda berilgan 1730-1730401-242110-sonli Arxitektura va Rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan berilgan 2025-12-15 dagi 230042618-sonli Kengash xulosasi

1.5. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishning texnik shartlari.

1.6. Buyurtmachi va loyihachi o’rtasida tuzilgan 2025-yil 16 dekabr kungi 10-sonli shartnoma

1.7. “HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” AJ “"FARG‘ONA HETK" AJ” tomonidan berilgan 2025-yil 05-noyabrdagi 30401124769-sonli texnik sharti

1.8. “Farg’ona suv ta’minot” AJ tomonidan berilgan 2025-yil 04-noyabrdagi 1174-sonli texnik sharti

1.9. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi Vazirligi Davlat Ekologik ekspertizasi markazi Farg'ona viloyati filiali tomonidan berilgan 2025 yil 16 oktabrdagi 01-02/12-4674-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

1.10. Qurilishda muhandislik qidiruvlari geoaxborot va shaнarsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish instituti «O‘ZGASHKLITI» MChJ Farg’ona viloyati filiali tomonidan berilgan muhandis-geologik tadqiqotlar natijalari bo‘yicha TEXNIK HISOBOT

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. “Ishchi loyiha”ning ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.
- Arxitektura va qurilish qismi.
- Ichki muhandislik tarmoqlari (isitish va elektr qismi).
- Tashqi muhandisliq tarmoqlari.
- Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Ishchi loyihaga doir ma’lumotlar.

Hududning zilzilaviyligi - 8 ball.
Maydonning zilzilaviyligi - 8 ball.
Standart yuklar: A) shamol - 0,38 kPa (38 kgf / m2)
B) qor - 0,50 kPa (50 kgf / m2)
Tashqi havo harorati -14 ° C

Obyektning joylashishi va geomorfologiyasi - Farg‘ona shahar Mash’al MFY S.temur ko‘chasi 34-uyda joylashgan.

BOSH REJA

Hududda funksional jarayon uchun maqbul sharoit yaratilishini hisobga olgan holda Bosh reja ishlab chiqilgan. Loyiha hududni funksional rayonlashtirishni binolar va inshootlarni turli guruhlarini bir-biriga qulay joylashishi bilan ta’minlaydi. Hudud obodonlashtirildi, yo‘llar va piyodalar o‘tish yo‘llari qattiq sirtga va sun’iy yorug‘likka ega.

Aholining dam olish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun hududlar, yashil maydonlar va yer usti avtoturargohlar loihalangan. Hududda va binolar ichida PQ 266-sonli qarorga va ShNQ 2.07.02-24*ga asosan choratadbirlar ishlab chiqilgan va loyihalangan. Yo‘llar, piyodalar yo‘llari tagida qum va shag‘al, ustki qismida asfaltbeton va bruschatka qoplamasi bilan bajariladi. Hududni obodonlashtirishda ularning sanitariya-gigiyena va dekorativ h ususiyatlarini inobatga olgan holda mahalliy daraxt va buta turlaridan foydalaning.

Hududda va bino ichida PQ 266-sonli qarorga va ShNQ 2.07.02-24*ga asosan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va loyihalangan.

HUDUDNING ICHIDA:

Texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlar

Xududning maydoni - 2800.0 м2
Qurilish maydoni - 1122.52 м2
Yo’l va yo’laklar - 997.48 м2
Ko'kalamzor maydonlar - 680.0 м2

Arxitektura yechimlari

A. blok – 12 qavatli turar joy binosi. Loyihalashtirilgan bino to’g’ri to’rtburchak shaklga ega bo'lib, o'lchamlari o'qlari bo'yicha 30.0 m x 18.6 m. Birinchi qavat poldan shiftgacha balandligi 4,0 m qolgan takrorlanuvchi qavatlar balandligi 3,0 m.

B. blok – 9 qavatli turar joy binosi. Loyihalashtirilgan bino to’g’ri to’rtburchak shaklga ega bo'lib, o'lchamlari o'qlari bo'yicha 30.0 m x 13.1 m. Birinchi qavat poldan shiftgacha balandligi 4,0 m qolgan takrorlanuvchi qavatlar balandligi 3,0 m.

Binoning yong'inga chidamliligi darajasi II.

Qurilish maydoni SHNK 2.01.01-22 bo'yicha IV iqlim tumaniga tegishli.

SHNK 2.01.01-22 ga muvofiq hisoblangan qishki tashqi havo harorati: Eng sovuq besh kunlik o'rtacha -14 S Eng sovuq kunlik o'rtacha -18 S

Konstruktiv yong'in xavfining klassi - CO

Binoning yong'inga chidamlilik darajasi - II

Funktsional yong'in xavfi bo'yicha sinf - F1.3
Birinchi va podval qavatlarda texnik xonalar joylashgan.
Turar-joy binosida 2 xonali va 3 xonali — jami 103 ta kvartira joylashtirilgan.
Turar-joy binosidagi kvartiralar ikki zonaga bo‘lingan:
jamoat qismi – oshxona va mehmonxonani o‘z ichiga oladi,
shaxsiy qism – yotoqxonalardan iborat.
Qavatning umumiy maydoni — 414.5 m²
Qavatdagi kvartiralar maydoni — 283.81 m²
Yozgi maydoni (balkon)— 19.21 m²
Qavatdagi kvartiralar umumiy maydoni — 303.02 m²
Ichki bezatish ishlari buyurtmachi tomonidan berilgan aloqa xati va loyiha topshirig’iga asosan quruvchi tomonidan bajarilmaydi va foydalanishga “korobka” holatida topshiriladi.

Konstruktiv yechimlari
Binoning konstruktiv yechimi QMQ 2.01.03-19 3.1 jadvali bo’yicha 1.2.2 “b” bandi “bog’lamali yoki rama bog’lamali” qilib loyihalangan.
Poydevorlar – monolit B20 sinfli temirbeton plita, qalinligi 1200mm, poydevor devorlari qalinligi 400mm B25 sinfli monolit betondan. Poydevorlar gidroizolyatsiyasi rulonlik bajariladi – 2 qatlam
Kolonnalar – monolit B30 sinfli temirbetondan, ko’ndalang kesimi 500x500mm va 400x400mm.
Yuk ko’taruvchi va bog’lo’vchi rigellar – monolit B25 sinfli temirbetondan ko’ndalang kesimi 400(h)x400mm
Diafragmalar – B25 sinfli monolit temirbetondan
Orayopma va tomyopmalar – yig’ma temirbeton yumaloq g’ovaklik plitalar
Zinapoya va lift shaxtalari – monolit B25 sinfli temirbetondan. Zinapoya ShNQ 2.01.02-04* va ShNQ 2.08.01-24*ga muvofiq H1 tipdagi zinapoya qilib loyihalangan.
Devorlar – D500 markalik gazoblokdan maxsus qorishmada yotqizilgan, qalinligi 250mm
Tom – chordoqlik, yog’och konstruksiyalik valmalik (konvert uslubida) qilib loyihalangan.
Tomyopma – profnastil, qalinligi 0.5mm.
Tashqi zinapoya va panduslar – B15 sinfli monolit betondan.
Bino perimetri bo’yicha eni 1.0m B7.5 sinfli monolit betondan otmostka loyihalangan.
Binoning seysmik ta’sirlarga qarshi chora-tadbirlari QMQ 2.01.03-19 asosida ishlab chiqilgan va qurilish jarayonida ularga amal qilish zarur
Binoning yong’inga qarshi chora-tadbirlari ShNQ 2.01.02-04* asosida ishlab chiqilgan va qurilish jarayonida ularga amal qilish zarur.
3.2. Tushuntirish xati elektron taqdim etilgan albomlarda batafsil ko‘rsatilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Muhandislik ta’minoti va uning xususiyatlari:
Loyiha yechimlarini qisqacha mazmuni:
Quyidagi hujjatlar asosida isitish bo‘limi loyihalandi:
arxitektura-qurilish topshirig‘i;
texnologik topshiriq;
SHNK 2.04.05-22 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash”;
SHNK 2.01.01-22 “Loyihalash uchun iqlimiy va fizik-geologik ma’lumotlar”;
KMK 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi”;
KMK 2.01.02-04 “Binolar va inshootlarning yong‘in xavfsizligi”.
Isitish tizimi
Loyiha tashqi havo hisobiy parametrlariga asosan ishlab chiqilgan: t = –14°C. Ichki hisobiy haroratlar va havo almashinuvi koeffitsiyentlari KMK talablari bo‘yicha qabul qilingan. Issiqlik

manbai sifatida binoning issiqlik sarfiga asoslangan holda tanlangan issiklik nasoslari (Chiller) qo‘llanilgan. Zaxira sifatida, issiqlik nasoslari ta’miri vaqtida, binoni issiqlik bilan uzluksiz ta’minlash maqsadida qattiq yoqilg‘ida ishlaydigan yangi modul qozonxonadan ulash nazarda tutilgan Qozonxona va issiqlik nasoslaridan isitish tizimiga kiruvchi issiqlik tashuvchi harorati 60–50°C. Qish mavsumida issiqlik nasoslari (Chiller) muzlab qolmasligi uchun issiqlik almashinishgacha bo‘lgan qismga propilenglikol (antifriz) quyiladi. "TOJMAHAL CITY QURILISH" MJCH ning 29.12.2025 kungi aloqa xatiga asosan, tashqi muxandislik (TS va TM) tarmoqlarining loyixasi ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi ma’lum qilingan Taqsimlovchi va qaytuvchi quvurlar SHNK 2.04.05-22 ga muvofiq i = 0.002 meyori bo‘yicha loyihalashtirilgan. Devorlardan o‘tuvchi polipropilen quvurlar uchun maxsus g‘iloflar (gilza) ko‘zda tutilgan Yoz faslida sovitish tizimidan foydalanilmaganligi uchun buyurtmachini talabiga asosan balandligi N-500 bimetal radiatorlar loyixalashtirilgan Isitish tizimida polipropilen quvurlar foydalanilgan Isitish tizimida to‘plangan havo radiatorlarda o‘rnatilgan havo chiqaruvchidan bo‘shatiladi, hamda radiatorga issiq suv kirish qismiga ’’Klapan va termogalovka" ko‘zda tutilgan

Ventilyatsiya

Binoda tabiy va mexanik ventilyatsiya qo‘llanilmoqda. Xonalarga toza havo oqimi derazalar va darjalar orqali amalga oshiriladi. Sanuzellardan havoni so‘rib chiqarish uchun yumaloq kannalli ventilyatordan foydalaniladi. Havo kanallari GOST14918-80 li po‘latdan yasalgan, qalinligi QMQ 2.04.05-97* ga muvofiq tanlanadi . Havo kanallari 5.904-1 seriyasiga muvofiq mahkamlanishi kerak. Shamollatish tizimlarining havo kanallarini o‘rnatish qurilish ishlari tugagandan so‘ng amalga oshirilishi kerak KMK 3.05.01-97 ga asosan isitish, shamollatish va havoni tozalash tizimlarini o‘rnatish va sinovdan o‘tkazish kerak "Ichki sanitariya - texnik tizimlari" talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Sovuq suv tarmoqlari:

Sovuq suv tarmog‘ini tortish uchun PPR RN-10 quvurlaridan foydalanilgan. Quvurlar bino devorlaridan o‘tishida po‘lat gilzalar ichidan o‘tadi. Cherdakdagi barcha quvurlar ARMOFLEKS trubkali qalinligi 19mm bilan izolyatsiya qilingan. Suv xisoblagich uskunasi xar bir xonadonga o‘rnatish ko‘zda tutilgan Binoga yetarli bosim xosil qilish uchun yer to‘la qavatdagi nasosxonaga Q=0,59- 11 m3/chas N=60 m N=1,1 kvt li nasos o‘rnatilgan Sovuq suv tarmog‘ini tortish uchun Ø15 – Ø32 mm diametrli polipropilen quvurlaridan foydalanilgan Yong‘inga qarshi suv ta’minoti tizimlari V2 GOST 10704-91 ga muvofiq Ø50 -80 mm, temir quvurdan foydalanilgan. Yong‘inga qarshi suv ta’minoti uchun yetarli bosim xosil qilish uchun yer to‘la qavatdagi nasosxonaga Q=18,0 m3/chas N=56 m N=7,5 kvt li nasos o‘rnatilgan

Issiq suv tarmoqlari:

Issiq suv tarmog‘ini tortish uchun PPR PN-20 quvurlaridan foydalanilgan. Bino va iyshootlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish talablari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9 sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablariga muvofiq amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan, binoning tom qismida o‘rnatilgan quyosh batareyasi kollektoridan qo‘shimcha issiq suv ta’minlanishi ko‘zda tutilgan . Quyosh nuri yetarli darajada isitib bera olmagan vaqtda elektr suv isitgichlardan foydalanilgan

Oqava suv tarmog‘i:

Oqova suv tarmoq quvurlarini tashqi tarmoq quduqlariga qarab nishablikda loyihalandi. Oqova suv tarmoqlari polietilen 50, 110 mm quvurlaridan foydalanildi. Bino konstruksiyalari orqali o‘tadigan oqova suv quvurlarini gilzalar bilan qoplash va ular orasini yonmaydigan materiallar bilan to‘ldirish kerak "TOJMAHAL CITY QURILISH" MJCH ning 29.12.2025 kungi aloqa xatiga asosan, tashqi suv va oqova suv tarmoqlarining loyixasi ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi ma’lum qilingan.

Elektr ta’minoti

Ushbu elektr qismi SHNQ 2.04.17-2019, SHNQ 2.08.01-05 va PUE ga muvofiq loyihaning arxitektura-qurilish qismining vazifalari asosida amalga oshirildi.

Elektr ta'minotining ishonchliligi nuqtai nazaridan turar-joy binosi II toifali iste'molchilarga tegishli. ShchS-1 hisoblab chiqilgan quvvati 23,6 kVt ShchS-2 hisoblab chiqilgan quvvati 18,08 kVt Umumiy hisoblash quvvati 262,66 kVt Kvartiralarning ta'minot liniyalari ko'targichlarining loyihaviy yuklari, shuningdek kirishdagi loyihaviy yuklar SHNQ 2.04.17-2019, 2-jadvalga muvofiq 7-bandning eslatmalarini hisobga olgan holda, har bir xonadonning solishtirma yukiga va kvartiralar soniga qarab belgilanadi. Kirish-tarqatish qurilmasi sifatida VRU seriyasi qabul qilindi. Turar-joy binosida elektr energiyasini hisobga olish TE - 73 tipidagi elektron hisoblagich bilan ta'minlanadi. Har bir qavatda o'rnatilgan ShE, TE - 71 tipidagi elektr hisoblagichlari va UZO tipidagi himoya uzish qurilmalari bilan birgalikda qavat shiti sifatida qabul qilinadi. Xonadon shitlari sifatida bir fazali elektron to'xtatuvchilari bo'lgan ShK tipidagi shitlar qabul qilindi. Xonadon shitlari kvartiralarning koridorlarida o'rnatiladi. Qavat shitlariga magistral tarmoqni podvaldagi kabel yotqizgichlari va ko'tariluvchi qavslar bo'ylab AVVGng kabeli bilan amalga oshiriladi. Zinapoyalarni va lift oldi yo'laklarini ishchi yoritish uchun elektr ta'minoti tarmog'i devorlar bo'ylab ko'tariluvchi polietilen trubalardagi VVGng kabeli bilan amalga oshiriladi.

Kvartiralarning barcha xonalarida, ShNK 2.08.01-2019 ga binoan, terminal bloklari, oshxonalar va koridorlarda terminal bloklar va patron, balkon va vannalarda yoritgich, xojatxonalarda devor patronlarini o'rnatilishi rejalashtirilgan. LED lampalar umumiy maishiy iste'molchilar uchun yorug'lik manbalari sifatida qabul qilinadi. Zinapoyalar va lift oldi yo'laklarining elektr yoritilishi uchun birinchi qavat kirishda o'rnatilgan kalitlar orqali boshqariladigan sensor datchik dvijeniya bilan boglangan LED PANEL yoritgichi qo'llanilgan. Kvartiralarning guruh tarmoqlari monolitik devorlar va ship yoritgichlarida, gipsokarton bo'laklarida polietilen qilingan PVX quvurlarda yashiringan VVGng kabeli bilan amalga oshiriladi.

Loyihada har bir xonadon uchun tugmachali elektr qo‘ng‘iroqlarni o‘rnatish ko‘zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrdagi ΠΦ-220-sonli farmoniga asosan hamda elektr energiyasini tejash maqsadida loyihada quyosh batareyalari bilan ta'minlash nazarda tutilgan. Elektr qurilmalarining barcha metal tok o'tkazmaydigan qismlari yerlatiladi. Buning uchun tashqi va ichki yerlatish konturi inobatga olingan. Tarmoqlarning neytral simlari va qo'shimcha neytral similar yerlatish o'tkazgichlari sifatida ishlatiladi. Barcha elektr ishlari PUE va KMK 3.05.06-19 ga muvofiq bajarilishi kerak. Buyurtmachining loyixa topshirigiga asosan tashki elektr ta’minot loyixasi 2 boskichda bajariladi

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi Vazirligi Davlat Ekologik ekspertizasi markazi Farg'ona viloyati filiali tomonidan berilgan 2025 yil 16 oktabrdagi 01-02/12-4674-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **29 647 328 618** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

323 441 406 so'mga kamaytirilib, **29 323 887 212** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **25 709 164 028** so'm

QQS: **3 085 099 683** so'm

6.1.Ekspertiza jarayonida mutaxasislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

6.2.Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining texnologik, ichki muxandislik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari izoxlarsiz taqdim etilgan.

6.3.Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izoxlariga muvofiq kiritilgan kamchiliklar va tuzatishlar loyixachi tomonidan ko‘rib chiqildi va tuzatildi. (Biriktirilgan lokal ekspertiza xulosalaridagi faylda batafsil ko‘rsatib o‘tilgan).

6.4. Buyurtmachi jami xarajati, obyektning materiallar qiymati, ish xaqqi 19121,47 sum/chelchas (12% ijtimoiy sug‘urta ajratmalarisiz) va pudratchining boshqa xarajatlari 16,13% buyurtmachi xatiga asosan qabul qilindi.

Buyurtmachi tomonidan quydagi obyekt jami bo‘lib 29 647 328,618 ming so‘m taqdim etilgan.

Tekshiruv natijasiga ko‘ra quydagi ko‘rsatgichlar tavsiya etiladi:

Qurilish qiymati QQS siz	- 25 709 164,028 ming so‘m
QQS 12%	- 3 085 099,683 ming so‘m
Qurilish qiymati QQS bilan	- 28 794 263,711 ming so‘m
Buyurtmachining xarajatlari	- 529 623,501 ming so‘m
Jami obyekt qiymati QQS va buyurtmachi xarajatlari bilan	- 29 323 887,212 ming so‘m
Iqtisod qilingan mablag‘	- 323 441,406 ming so‘m

Kamayish qurilish mashinalarini va mexanizm va ba'zi materiallar qiymati sozlash xisobiga amalga oshirildi.

Qurilish-montaj ishlari	- 25 709 164,028 ming so‘m
Asbob-uskunalar	- 0 ming so‘m

6.5. Import qilingan uskunalar va materiallarning narxi ekspertiza tomonidan ko‘rib chiqilmagan.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi №579-sonli qarori 1-ilova, III bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.7. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o‘tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

6.8. Ko‘rsatilgan narxni tanlov savdolari uchun qabul qilish to‘g‘risida buyurtmachi qaror qabul qiladi. Ushbu yig’ma ekspertiza xulosa qurilish-montaj ishlarini shartnomasini tuzish va qurilish pudratchisi tomonidan qurilish-montaj ishlarini bajarish uchun o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos bo'la olmaydi.

7. Xulosalar.

7.1. Mavjud ma’nan eskirgan bino inshootlarni buzib, o‘rniga ko‘p qavatli birinchi va ikkinchi qavatlari qisman savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchalari, qolgan qavatlari turar-joy binosi sifatida qurish, loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalarini xisobga olgan holda ko‘rib chiqib, tasdiqlashga tavsiya etiladi. Ushbu yig’ma ekspertiza xulosasidagi loyiha yechimlaridan chetlash bo’lsa, yig’ma ekspertiza xulosasi o’z kuchini yo’qotadi

7.2. ShNK 1.03.06-2013 42-bandiga asosan amal qilish muddati 2 yil.

Bosh ekspert: Ruziboyeva Nodira Tolibjonovna.

Ishtirokchi ekspertlar: Egamov Javlon Naimjanovich, Pan Vladislav Nikolayevich, Sobirova Muazzamxon G‘ofurovna, Askarova Malika Maxmudovna, Karimov Nizomjon Boboxanovich, Rozikov Xasanjon Xoshimovich